

FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA ISHTIROKINING YURIDIK TABIATI

Usmonov Bo'ston

bostonusmonov1@gmail.com

Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridik fakulteti 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19810164>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ishtirokining yuridik tabiati tahlil qilinadi. Xususan, mahalla fuqarolar yig'inlari va boshqa o'zini o'zi boshqarish institutlarining ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni, ularning huquq va majburiyatlari hamda davlat organlari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmlari yoritiladi. Maqolada fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining yuridik tabiati ularning davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmagan holda, ammo ommaviy-huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etuvchi mustaqil institut sifatida shakllanishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ularning ekologik sohadagi vakolatlarini yanada kengaytirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va samarali jamoatchilik ishtirokini ta'minlash zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, Ekologik strategiya, Ekologik nazorat, tabiiy resurs, o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi.

THE LEGAL NATURE OF THE PARTICIPATION OF CITIZENS' SELF-GOVERNMENT BODIES IN ENVIRONMENTAL PROTECTION

Abstract. This article analyzes the legal nature of the participation of citizens' self-government bodies in the field of environmental protection. In particular, it examines the role of mahalla citizens' assemblies and other self-governance institutions in ensuring environmental safety, their rights and obligations, as well as the mechanisms of cooperation with state authorities. The article explains that the legal nature of citizens' self-government bodies is defined by their formation as independent institutions that are not part of the system of state authorities, yet actively participate in public-law relations. At the same time, the necessity of expanding their powers in the environmental sphere, improving the regulatory and legal framework, and ensuring effective public participation is substantiated.

Keywords: Environment, environmental strategy, environmental control, natural resources, flora, fauna.

Zamonaviy ekologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda sayyoramiz miqyosida atrof tabiiy muhitga ko'rsatilayotgan antropogen va texnogen ta'sirlar o'zining eng yuqori nuqtasiga yetgan. Xususan, mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, turli xil yoqilg'ilarni yoqish oqibatida har yili 10,1 milliard tonna kislorod sarflanmoqda. Yer sharidagi qishloq xo'jaligiga yaroqli hududlarning 70 foizi hamda chuchuk suv zaxiralarining 20 foizi o'zlashtirilib bo'lingan.

Buning natijasida o'rmonlar egallagan maydonlar jadal sur'atlarda qisqarib, cho'llanish mintaqalari kengaymoqda va global iqlim isishi xavfi ortib bormoqda.

Shu bilan birga, dunyo aholisining yil sayin o'sib borishi insoniyatning oziq-ovqat, energiya va boshqa hayotiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiiy resurslardan yanada ko'proq foydalanishni talab etmoqda. Sanoat korxonalarining kengayishi hamda texnologik taraqqiyot atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazib, ekologik inqirozlarni keltirib chiqarmoqda.

Oqibatda, dunyo miqyosida ekologik muhitning buzilishi inson genofondi va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, turli xil og'ir kasalliklarning ko'payishiga olib kelmoqda.

Sayyoraning taqdiri uchun inson tomonidan o'tgan asrdayoq bong urilgan, hozirgi yuz yillikda esa atrof-tabiiy muhitga bosimning ortib ketishi natijasida dunyo ekologik tizimi inqiroz darajasiga yetdi. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish, tabiiy resurslarni ishdan chiqarish, ekotizimdagi ekologik aloqalarni buzish global muammo bo'lib qoldi. Agar insoniyat hozirgi tarraqiyot yo'lidan borishni davom ettirsa, uning halokati ikki-uch avlod yashab o'tgandan so'ng yuz berishi ehtimoldan xoli emas. Ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, tabiat bilan jamiyat bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqa, chambarchas bog'likda bo'ladi.

Bu uzviylik, o'zaro ta'sir tabiatning umumiy qonuniyatlariga mos kelishi, o'zaro teng muvazanatda bo'lishlikni talab etadi. Aks holda bu muvazanatning buzulishi salbiy holatlarni keltirib chiqarib, tirik mavjudodning yashashiga xavf soladi. Shu sababdan, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, undan oqilona foydalanish, uni mushofaza etish lozimdir. Tabiat obyektlaridan foydalanishda shunday vositalarni topish, ularni qonunlarda o'rnatish, amaliyotga qo'llash lozimki, bu bir tomondan, xo'jalik faoliyati taraqqiyotini ta'min etsin, ikkinchi tomondan, tabiatni muhofaza qilish munosabatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qilsin. Shuni aytish kerakki, tabiatni muhofaza qilish bahonasida ishlab chiqarish manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishga ham yo'l qiyish yaxshi holat emas.

Shuningdek iqtisodni rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan intensiv foydalanishga keng yo'l ochib berish, iqtisodiyot va ekologiya manfaatlarini bir biriga qarama-qarshi qo'yish ham mumkin emas. Sanoatni, qishloq xo'jaligini boshqa sohalarni tabiiy atrof muhitni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish vazifalarini hal etish asosida taraqqiy ettirishni ta'minlash lozim.

Muammoni shunday tartibda hal etish kerakki, bunda birinchidan, tabiiy resurslardan foydalanishda ekologiyaning ham, iqtisodning ham manfaatlarini hisobga olinsin, ikkinchidan, ularning uzviyligini ta'minlash mumkin bo'lmasa, ustuvorlik ekologiyaga berilishi kerak. Xuddi shunday prinsip O'zbekiston davlati olib borayotgan ekologik siyosatda, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan tabiiy atrof-mushitni muhofaza etishga bag'ishlangan o'z ifodasini topgan. Buning yuridik ifodasi sifatida ekologik ekspertizani, xo'jalik va boshqa faoliyatni amalga oshirishda ekologik talablarni, ekologik talablarga javob bermaydigan korxonalar va obyektlarni foydalanishga kiritish man qilinishini ko'rsatish mumkin¹.

Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tabiatdan foydalanishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmi o'zida tabiatni muhofaza qiluvchi choralarni moliyalashtirish, xo'jalik subyektlari faoliyatini soliq va boshqa imtiyozlar orqali rag'batlantirish, atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik hamda unga boshqacha zararli ta'sir ko'rsatganlik uchun to'lanadigan pul vositalari sarflanishi shartlari va usullarini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar majmuini qamrab olgan huquqiy institutni ifodalaydi².

Ekologik strategiyaning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, iqtisodiy va ekologik siyosatni muvofiqlashtirish, ya'ni bozor tizimida ekologik omillarni yanada samarali muvofiqlashtirish;

Ikkinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning afzalligi va ustunligini ta'minlash;

¹ Ekologiya huquqi. Darslik // Mas'ul muharrir: yuridik fanlari doktori, professor J.T. Xolmo'minov. – Toshkent TDYuU, 2018. -366 b.

² Dubovik O.V., *Ekologicheskoye pravo*, izd. Yurist' / Moskva/ 2002. str.128.

Uchinchidan, alohida hududlar hamda respublika bo'yicha, tabiiy resurlar zahirasi bo'yicha ishlab chiqarishni kengaytirish;

To'rtinchidan, atrof tabiiy muhit hamda tabiiy resurslar zahirasidan foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish bo'yicha, moliyaviy resurslarni shakllantirish;

Beshinchidan, tabiatdan foydalanuvchilarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanishida va atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishida iqtisodiy manfaatdorligini oshirish.

Ekologik siyosatni amalga oshirishda iqtisodiy vositalardan foydalanish dunyoning barcha yetakchi mamlakatlarida keng qo'llaniladi. Iqtisodiy vositalarni qo'llash "ifloslantiruvchi - to'laydi", "tabiatdan foydalanuvchi - to'laydi" degan tamoyillarga asoslanadi.

Iqtisodiy mexanizm hamda vositalarni qo'llashning asosiy maqsadi atrof tabiiy muhit resurslariga munosib baho berish va ulardan samarali hamda yaxlit foydalanishni kafolatlashdir.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda undan foydalanishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmi elementlariga quyidagilar kiradi:

- tabiatdan foydalanish hamda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishni rejalashtirish;
- atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishni moliyalashtirish;
- tabiatdan foydalanganlik uchun haq to'lash;
- ekologik sug'urtalash;
- iqtisodiy rag'batlantirish choralari.

Tabiatni muhofaza etish turli xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Shulardan eng muhimi - tabiatni huquqiy muhofaza etishdir, ya'ni tabiatni qonunlar yordamida ifloslanishdan, xo'jasizlarcha foydalanishdan, zaharlanishdan himoya qilishdir. Demak, tabiatni muhofaza qilishda huquq alohida ahamiyatga ega bo'lib, u yuridik va jismoniy shaxslarga tabiatdan oqilona foydalanish hamda muhofaza etish tartib qoidalarini belgilab beradi.

Harakatdagi tabiatni muhofaza qilishga bag'ishlangan qonunlardagi ekologik talablarga rioya etilishini, ularni amaliyotda to'g'ri tadbiiq qilinishini ta'minlashda ekologiya qonunchiligini mukammal bilish zarur biladi. Chunki, ekologik noxushliklar ko'pincha ushbu qonunlarni bilmaslik hamda ularga rioya etmaslik oqibatida kelib chiqadi. Shu sababdan, so'g'lom tabiiy atrof muhitni saqlash ko'p jihatdan mansabdor shaxslar va fuqarolarning ekologiya qonunchiligi to'g'risida qay darajada xabardorligi va unga amalda rioya etishligiga bog'liq bo'ladi. "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunining 15-moddasida Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ekologik nazorat sohasidagi vakolatlari ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari:

atrof muhitni muhofaza qilishni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari bo'yicha qarorlar tayyorlashda va qabul qilishda, shuningdek davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli hududda jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshiradi;

atrof muhit holatini va atrof muhitning ifloslanishiga hamda tabiiy resurslardan nooqilona foydalanishga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni kuzatib borishni amalga oshiradi;

ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

maxsus vakolatli davlat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, xo'jalik yurituvchi subyektlarga davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirishda o'z vakilining kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi to'g'risida takliflar kiritadi;

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik buzilishining o'zi tomonidan aniqlangan fakti to'g'risida maxsus vakolatli davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarini, xo'jalik yurituvchi subyektlarni xabardor qiladi;

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchiliklarining talablari buzilganligi aniqlangan faktlar yuzasidan choralar ko'rish to'g'risida tegishli davlat organlariga takliflar kiritadi;

atrof muhitning holati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, mazkur sohadagi qonunchilik buzilishi yuzasidan aniqlangan faktni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli davlat organlariga murojaat qiladi va axborot oladi;

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga doir jamoatchilik fikrini o'rganishni, jamoatchilik ekologik ekspertizasini o'tkazadi;

atrof muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish masalalari yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi hamda ularning natijalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

atrof muhitni muhofaza qilishga ko'maklashadi, ekologik nazoratning boshqa subyektlari va ommaviy axborot vositalari bilan jamoatchilik ekologik nazorati masalalari bo'yicha, shu jumladan ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari tizimini shakllantirishda hamkorlik qiladi;

aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga doir ishda ko'maklashadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

«O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»² qonunining 14-moddasida Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolarning o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni ta'minlashda ishtirok etishi haqida belgilab o'tilgan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar:

o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar qonunchilikka muvofiq o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'yicha boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin. «O'rmon to'g'risida»³ qonunining 16-moddasida esa fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolarning o'rmonlarni muhofaza qilishni, himoya qilishni, ko'paytirishni, takroriy ko'paytirishni, qayta tiklashni, ularning mahsuldorligini oshirishni va ulardan foydalanishni ta'minlashda ishtirok etishi belgilab o'tilgan.

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 38-son, 440-modda

³ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2018 y., 03/18/475/1078-son

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar o'rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko'paytirish, takroriy ko'paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan foydalanish sohasida:

davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

aholi o'rtasida fuqarolarning huquqiy savodxonligini va ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar o'rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko'paytirish, takroriy ko'paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan foydalanish bo'yicha boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi, davlat organlariga ko'maklashishi mumkin.

«Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 14-moddasida Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolarning hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni ta'minlashda ishtirok etishi ko'rsatib o'tilgan.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolar:

hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyundagi 380-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan "Fuqarolar yig'inining komissiyalari to'g'risida»gi⁴ namunaviy nizomda Fuqarolar yig'inining ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyasining faoliyatini tashkil etish normalari ishlab chiqilgan. Mazkur nizomda Fuqarolar yig'inining ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyasining asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari fuqarolar yig'inining ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyasining (keyingi o'rinlarda — ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyasi) asosiy vazifalari hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari atrof-muhitni muhofaza qilish tizimida muhim o'rin tutadi. Ular jamiyat va davlat o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida ekologik muammolarni aniqlash, ularni hal etishda jamoatchilikni jalb qilish hamda joylarda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu organlarning yuridik tabiati ularning mustaqil, ammo ommaviy-huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etuvchi institut ekanligi bilan tavsiflanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mahalla va boshqa o'zini o'zi boshqarish organlari aholining ekologik madaniyatini oshirish, chiqindilarni boshqarish, hududlarni obodonlashtirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ularning samarali faoliyati ko'p jihatdan qonunchilikdagi aniq vakolatlar, davlat organlari bilan hamkorlik darajasi va jamoatchilik faolligiga bog'liq.

⁴ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.06.2021 y., 09/21/380/0574-son; 10.08.2022 y., 09/22/438/0726-son

Kelgusida ushbu institutlarning ekologik sohadagi rolini kuchaytirish uchun ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish, vakolatlarini kengaytirish va jamoatchilik nazoratini yanada rivojlantirish zarur. Faqat shu yo'l bilan atrof-muhitni muhofaza qilishda barqaror va samarali tizimni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2016-yil 7-dekabr. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 48b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2017-yil 9-dekabr
5. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. // Xalq so'zi, 2017-yil 20-sentyabr
6. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 508 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // «Xalq so'zi» gazetasining 2018-yil 29-dekabrda, 271-272-son(7229-7230) soni